

**ONA TILI DARSALARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN
FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI**

Nigora BOBOMURODOVA,
*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878487>

Annotatsiya: *Maqolada ona tili darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanishning samarali usullari yoritilgan. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarda faollikni oshiradi, darsga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Muallif ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini tahlil qilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'limiy o'yinlar, dars jarayoni, ijodiy fikrlash, jamoaviy ishlash, darslik, topshiriqlar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются эффективные способы применения образовательных игр на уроках родного языка. Подчеркивается, что включение игровых элементов в учебный процесс способствует активизации познавательной деятельности учащихся, повышению интереса к предмету и более глубокому усвоению учебного материала. Автор анализирует возможности формирования у школьников навыков творческого мышления и коллективной работы посредством использования игровых методик в преподавании.*

Ключевые слова: *образовательные игры, учебный процесс, творческое мышление, коллективная работа, учебник, задания.*

Annotation: *The article explores effective ways of using educational games in mother tongue lessons. Such games increase students' engagement, boost their interest in the lesson, and help deepen their understanding of the learning material. The author analyzes how integrating game elements into the educational process can foster creative thinking and teamwork skills among students.*

Keywords: *educational games, lesson process, creativ thinking, teamwork, textbook, assignments.*

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, “Ta'lim-tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz”. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularni bilim olishga faol jalb qilish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai

nazardan qaralganda, dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish – o‘quv jarayonini jonlantiruvchi, uni qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim metodik vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

Ona tili ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri va ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilishi lozim. Mazkur murakkab jarayonda maktab darsliklarining ahamiyati katta. Yangi darsliklarda o‘quvchiga har tomonlama bilim berishga qaratilgan, dunyoqarashni kengaytiradigan hamda fikrlashga undaydigan matn va unga doir o‘quv topshiriqlar berilgan. Ushbu topshiriqlar turli usullar bilan o‘qituvchi hamkorligida o‘quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi kerak. Ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik o‘yin-topshiriqlardir. Bu turdagi topshiriqlar o‘quvchilardan topqirlik, zukkolik, tezkorlik va bilimdonlikni talab qiladi. O‘yin-topshiriqlar ona tili darslarining qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Ularga xos bo‘lgan jihat shundan iboratki, o‘yinlar asosan musobaqa shaklida tashkil etiladi va yakunida faol qatnashgan hamda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar yoki kichik guruhlar rag‘batlantiriladi. Bu esa o‘quvchilarni o‘qituvchi tomonidan beriladigan har bir topshiriqni ishtiyoq bilan bajarishga undaydi.

Shuni unutmaslik kerakki, ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning mavzuni oson va tez tushunishiga yordam berishi lozim. O‘yin tashkil qilinganda sinf xonada shovqin ko‘tarilishining oldini olish uchun jarima ballar berish mumkin. Shunda tartib saqlanadi. Har darsda bunday o‘yinlardan foydalanaverish ham maqsadga muvofiq emas. Chunki o‘quvchilar uchun o‘yin jarayonida egallash lozim bo‘lgan bilimdan ko‘ra, kutilayotgan g‘alaba va yutuq asosiy jihatga aylanib qoladi. Ayrim hollarda esa o‘yin orqali berilgan bilim yuzaki va tez yoddan chiqib ketishi ham mumkin. Shuningdek, sodda grammatik qoidalarni tushuntirish uchun bir nechta bosqichlarda bajarilishi kerak bo‘lgan o‘yin-topshiriqlar har doim ham samarali natija beravermaydi. Negaki, bir xil ta’limiy o‘yin ham har xil sinflarda turlicha o‘tadi. Bunga sabab sinf o‘quvchilarining individual xarakter tipiga ega ekanligidir. Shuning uchun har bir o‘quvchiga mos keladigan, uning diqqatini jalb eta oladigan topshiriqlar tayyorlash lozim. Bu esa o‘qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga va mahoratiga bog‘liqdir.

Yangi ona tili maktab darsliklari eskisidan tubdan farq qiladi. Darslik topshiriqlari o‘quvchilarga grammatik qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmaydi. Birinchidan, darslikda berilgan o‘quv-topshiriqlar 45 daqiqaga mo‘ljallangan. Aytish mumkinki, turli ta’limiy o‘yinlar o‘tkazish uchun ortiqcha vaqt mavjud emas. Ikkinchidan, darslikda o‘yin-topshiriqlar shartlari berilgan bo‘lib, o‘qituvchi uni

istalgan usulda bajartirishi mumkin. Shuningdek, kitobda mundarija va mavzular ushbu dars mavzusida berilgan matn mazmunidan kelib chiqib nomlangan va unga oid turli topshiriqlar berilgan. Masalan, 7-sinf ona tili darsligini oladigan bo‘lsak, Qutb yulduzi deb nomlangan mavzu bor. Bu mavzu uchun 4 soat ajratilgan. Darsni boshlashdan oldin “Bu mavzuda o‘rganamiz” qismi bilan tanishish lozim. Chunki unda mavzuga doir tayanch tushunchalar yozilgan. Bu esa o‘qituvchiga dars jarayonida nimalarga e‘tibor qaratishi kerak bo‘lgan o‘rinlarni eslatib turadi. Misol uchun mazkur 4 soat davomida osmon jismlari, yulduzlar xaritasi, qutblar haqida ma‘lumot, atoqli otlar imlosi, uyushiq bo‘laklar, vergul qo‘llash va ijodiy matn tuzish o‘rganiladi. Har bir mavzu boshlanishida o‘quvchilarga savollar bilan murojaat qilinadi. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzuga oid dastlabki bilimlarini tekshiradi. Darslikda yangi ma‘lumotlar beriladi va shunga mos topshiriqlar bajariladi. O‘quv- topshiriqlarni bajarish davomida chetdan ma‘lumot izlashga hojat qolmaydi.

Shuningdek, atoqli otlar mavzusini mustahkamlash uchun “Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yinini o‘tkazish mumkin. Bu o‘yin bolalar sevib o‘ynaydigan o‘yinlardan bo‘lib, uni ta‘lim jarayonida ham qo‘llash mumkin. Mazkur o‘yin bolalarni tez fikrlashga, topqirlikka o‘rgatadi. O‘yin quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

Sinf ikki guruhga bo‘linadi. O‘qituvchi oldindan atoqli otlar (shaxs nomi, narsa nomi, o‘rin-joy nomi) deb yozilgan karton qog‘ozlarini, ularga misol bo‘luvchi so‘zlar yozilgan karton qog‘ozlarini, shuningdek boshqa so‘zlar (turdosh otlar) yozilgan qog‘ozlarni ham tayyorlab qo‘yadi. O‘yin qoidalari tushuntirilgach, boshlanadi.

1-guruhga atoqli otlar nomi yozilgan yozilgan qog‘ozlar beriladi, 2-guruhga esa atoqli otlarga mos misollar va ayrim boshqa so‘zlar yozilgan qog‘ozlar beriladi. 1-guruh 1-raqamdagi shaxs nomi yozilgan karton qog‘ozini ko‘taradi va 2-guruhga qarab “Oq terakmi, ko‘k terak?” -deydi. 2-guruh esa shaxs nomiga mos so‘zlar (Laziz, Omonov, Ulug‘) yozilgan va ularga aralash holda berilgan so‘zlarni (bola, o‘qituvchi, o‘zbek) ko‘tarib, “Bizdan sizga kim kerak?” - deb javob berishadi.

1-guruh a‘zolari bu so‘zlar ichidan shaxs nomiga mos so‘zlarni ajrata bilishlari va ularni ushlab turgan bolalarning ismlarini aytishlari kerak. Masalan, “Sizdan bizga Alijon, Mastura, G‘ulomjonlar kerak”, -deydi. Agar to‘g‘ri topishsa, o‘sha so‘zni ushlab turgan o‘quvchilar 1-guruh tomonga o‘tadilar. Ular xatolikka yo‘l qo‘yishsa so‘zlarni tanlagan o‘quvchilar 2-guruh tomonga o‘tadilar. Shu bilan o‘yinning 1-bosqichi yakunlanadi. 2-bosqichda 1-guruh o‘quvchilariga narsa nomlariga misollar va boshqa so‘zlar yozilgan karton qog‘oz, 2-guruhga narsa nomi deb yozilgan qog‘oz

beriladi. O‘yin yuqoridagi tartibda o‘tkaziladi. O‘yin tugagach, har ikki guruh to‘plagan ballar aytilib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Hozirgi ta‘lim tizimi faqatgina nazariy bilim berishga emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga va darslarni qiziqarli hamda samarali tashkil etishga qaratilgan. Shu sababli interfaol metodlar va ta‘limiy o‘yinlardan ta‘lim jarayonida foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 28-yanvarda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi.
2. Eraliyeva Xurshida. “Ona tili darslarida tashkil qilinadigan ta‘limiy o‘yinlarning turlari va mazmuni” maqola.
3. T.Almatov, Q.M.Yadgorov, Sh.Almatov. “O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion, pedagogik texnologiyalardan foydalanish” (Metodik qo‘llanma)-2013.
4. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman material. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
5. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta‘siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
6. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
7. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
8. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.